



**TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI**



*2024- yil yanvar-iyul oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:
(71) 203-88-20(21)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **14 695,8** mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **1 995,8** mln AQSH dollariga yoki **15,7 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyul 2024 y., mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **14 695,8** +15,7 %

(2023- y.: 12 700,0)



Saldo

2024- y.: **-8 440,2** (2023- y.: -7 175,6)




Eksport

2024- y.: **3 127,8** +13,2 %

(2023- y.: 2 762,2)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **11 568,0** +16,4 %

(2023- y.: 9 937,8)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 3 127,8 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 13,2 % ga ko‘paydi) va import hajmi 11 568,0 mln AQSH dollariga (16,4 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -8 440,2 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyul oylari, mln AQSH dollari)

Rossiya TSA – 3 675,0 Eksport: 610,5 Import: 3 064,5  25,0 %	XXR TSA – 2 983,4 Eksport: 442,6 Import: 2 540,8  20,3 %	Qozog‘iston TSA – 1 038,2 Eksport: 226,9 Import: 811,3  7,1 %	Turkiya TSA – 740,4 Eksport: 225,4 Import: 515,0  5,0 %	Turkmaniston TSA – 606,9 Eksport: 22,3 Import: 584,6  4,1 %
AQSH TSA – 348,0 Eksport: 79,3 Import: 268,7  2,4 %	Germaniya TSA – 333,2 Eksport: 21,6 Import: 311,6  2,3 %	Hindiston TSA – 268,6 Eksport: 10,4 Import: 258,2  1,8 %	Litva TSA – 267,3 Eksport: 113,9 Import: 153,4  1,8 %	Afg‘oniston TSA – 260,3 Eksport: 253,7 Import: 6,6  1,8 %

Toshkent shahri jahonning 175 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (25,0 %), XXRda (20,3 %), Qozog‘istonda (7,1 %), Turkiyada (5,0 %) va Turkmanistonda (4,1 %) qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln AQSH dollari)



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	2 390,5	2 633,8	3 675,0
<i>Eksport</i>	483,3	523,3	610,5
<i>Import</i>	1 907,2	2 110,5	3 064,5



XXR	2 409,9	3 082,0	2 983,4
<i>Eksport</i>	488,4	496,0	442,6
<i>Import</i>	1 921,5	2 586,0	2 540,8



Qozog'iston	958,3	906,8	1 038,2
<i>Eksport</i>	210,7	243,1	226,9
<i>Import</i>	747,6	663,7	811,3



Turkiya	701,9	806,4	740,4
<i>Eksport</i>	208,6	209,4	225,4
<i>Import</i>	493,3	597,0	515,0



Turkmaniston	304,6	383,1	606,9
<i>Eksport</i>	63,4	75,9	22,3
<i>Import</i>	241,2	307,2	584,6



AQSH	209,8	184,5	348,0
<i>Eksport</i>	27,5	56,0	79,3
<i>Import</i>	182,3	128,5	268,7



Germaniya	445,0	350,0	333,2
<i>Eksport</i>	22,6	19,8	21,6
<i>Import</i>	422,4	330,2	311,6













Hindiston	240,5	207,6	268,6
<i>Eksport</i>	9,1	10,9	10,4
<i>Import</i>	231,4	196,7	258,2



Litva	126,4	244,8	267,3
<i>Eksport</i>	19,9	29,6	113,9
<i>Import</i>	106,5	215,2	153,4




Afg'oniston	205,9	214,1	260,3
<i>Eksport</i>	204,3	213,0	253,7
<i>Import</i>	1,6	1,1	6,6

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	BAA	193,4	254,6	251,7
	<i>Eksport</i>	52,5	91,8	85,4
	<i>Import</i>	140,9	162,8	166,3
	Belarus	154,3	182,7	204,7
	<i>Eksport</i>	24,3	23,6	32,3
	<i>Import</i>	130,0	159,1	172,4
	Koreya Respublikasi	256,0	203,2	198,2
	<i>Eksport</i>	9,9	10,8	14,6
	<i>Import</i>	246,1	192,4	183,6
	Buyuk Britaniya	87,7	166,9	187,5
	<i>Eksport</i>	39,4	64,8	100,6
	<i>Import</i>	48,3	102,1	86,9
	Tojikiston	163,6	166,5	184,0
	<i>Eksport</i>	124,9	142,8	139,1
	<i>Import</i>	38,7	23,7	44,9
	Fransiya	94,6	253,2	183,5
	<i>Eksport</i>	4,4	0,8	7,4
	<i>Import</i>	90,2	252,4	176,1
	Chexiya	54,6	104,6	170,3
	<i>Eksport</i>	11,5	21,1	31,1
	<i>Import</i>	43,1	83,5	139,2
	Yaponiya	53,1	39,6	161,3
	<i>Eksport</i>	8,2	5,0	6,1
	<i>Import</i>	44,9	34,6	155,2
	Qirg'iz Respublikasi	126,5	141,6	160,2
	<i>Eksport</i>	107,3	107,9	127,3
	<i>Import</i>	19,2	33,7	32,9
	Gruziya	64,1	77,2	145,6
	<i>Eksport</i>	15,9	21,1	25,6
	<i>Import</i>	48,2	56,1	120,0




TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar –iyul mln AQSH doll.)*



Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,7 % ulush bilan 2 454,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 3,0 % ulush bilan 434,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga ko'paydi.



Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 58,6 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, 6 081,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1 278,7 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 4 803,1 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)

Rossiya – 25,0		Qozog'iston – 7,1	
Turkmaniston – 4,1		Belarus – 1,4	
Tojikiston – 1,3		Qirg'iz Respublikasi – 1,1	
Ukraina – 0,5		Ozarbayjon – 0,4	
Armaniston – 0,1		Moldova – 0,01	



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (25,0 %), Qozog'iston (7,1 %) hamda Turkmaniston (4,1 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyul, mln AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 5 086,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 1 002,3 mln AQSH dollari, import hajmi esa 4 083,9 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 1 829 taga yetdi va ular tomonidan 3 127,8 mln AQSH dollari (*nomonetar olindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*


XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	2 762,2	3 127,8	109,8	113,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	137,9	103,3	138,0	74,9	5,0	3,3
Ichimliklar va tamaki	49,5	47,4	99,0	95,6	1,8	1,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	32,2	30,2	64,0	93,6	1,1	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	94,7	163,3	75,3	172,5	3,4	5,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	0,7	27,1	155,3	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	211,8	197,2	88,8	93,1	7,7	6,3
Sanoat tovarlari	502,2	557,9	98,6	111,1	18,2	17,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	253,6	309,9	186,3	122,2	9,2	9,9
Turli xil tayyor buyumlar	115,5	116,6	140,1	100,9	4,2	3,7
Boshqa tovarlar	21,5	27,2	0,0	126,2	0,8	0,9
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	1 342,8	1 574,1	109,9	117,2	48,6	50,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 49,7 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (17,9 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (9,9 %) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 64,8 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul)*

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	523,3	610,5	108,3	116,7	1	1
XXR	496,0	442,6	101,6	89,2	2	2
Afg'oniston	213,0	253,7	104,3	119,1	4	3
Qozog'iston	243,1	226,9	115,4	93,3	3	4
Turkiya	209,4	225,4	100,4	107,6	5	5
Tojikiston	142,8	139,1	114,3	97,4	6	6
Qirg'iz Respublikasi	107,9	127,3	100,6	118,0	7	7
Litva	29,6	113,9	148,7	3,8 m.	15	8
Buyuk Britaniya	64,8	100,6	164,5	155,2	11	9
BAA	91,8	85,4	174,9	93,0	8	10
AQSH	56,0	79,3	2,0 m.	141,6	12	11
Ozarbayjon	29,4	46,3	71,0	157,5	16	12
Kanada	21,2	35,8	164,3	168,9	18	13
Belarus	23,6	32,3	97,1	136,9	17	14
Chexiya	21,1	31,1	183,5	147,4	19	15
Latviya	34,4	29,6	156,4	86,0	14	16
Gruziya	21,1	25,6	132,7	121,3	20	17
Turkmaniston	75,9	22,3	119,7	29,4	10	18
Polsha	11,2	22,2	43,2	198,2	26	19
Germaniya	19,8	21,6	87,6	109,1	21	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul, mln AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 24,2 % bilan 758,0 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,2 % bilan 36,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 11 568,0 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (27,8 %), sanoat tovarlari (15,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 630,2 mln AQSH dollariga ko'paydi va 11 568,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 912,8 mln AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	9 937,8	11 568,0	119,7	116,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	930,3	999,8	107,1	107,5	9,4	8,6
Ichimliklar va tamaki	99,8	128,3	148,2	128,6	1,0	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	154,1	132,6	96,1	86,1	1,5	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	753,8	1 710,8	179,3	227,0	7,6	14,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	133,8	98,7	140,8	73,7	1,3	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 530,3	1 610,4	103,9	105,2	15,4	13,9
Sanoat tovarlari	1 740,8	1 808,0	106,4	103,9	17,5	15,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	3 027,2	3 220,6	117,4	106,4	30,5	27,8
Turli xil tayyor buyumlar	495,0	549,1	109,7	110,9	5,0	4,8
Boshqa tovarlar	449,3	396,9	0,0	88,3	4,5	3,4
Xizmatlar	623,4	912,8	113,3	146,4	6,3	7,9

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-iyul natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 41,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga ko'paydi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida 172 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkmaniston, Turkiya, Germaniya va AQSH) jami importning 70,1 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul)

Davlatlar	MIn AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	2 110,5	3 064,5	110,7	145,2	2	1
XXR	2 586,0	2 540,8	134,6	98,3	1	2
Qozog'iston	663,7	811,3	88,8	122,2	3	3
Turkmaniston	307,2	584,6	127,4	190,3	6	4
Turkiya	597,0	515,0	121,0	86,3	4	5
Germaniya	330,2	311,6	78,2	94,4	5	6
AQSH	128,5	268,7	70,5	209,1	14	7
Hindiston	196,7	258,2	85,0	131,3	9	8
Koreya Respublikasi	192,4	183,6	78,2	95,4	10	9
Fransiya	252,4	176,1	279,8	69,8	7	10
Belarus	159,1	172,4	122,4	108,4	12	11
BAA	162,8	166,3	115,5	102,1	11	12
Yaponiya	34,6	155,2	77,1	448,6	35	13
Litva	215,2	153,4	202,1	71,3	8	14
Chexiya	83,5	139,2	193,7	166,7	21	15
Italiya	113,5	122,0	113,8	107,5	15	16
Gruziya	56,1	120,0	116,4	213,9	26	17
Tailand	66,2	114,0	649,0	172,2	23	18
Avstriya	39,0	111,2	107,7	285,1	32	19
Saudiya Arabistoni	106,9	108,1	111,0	101,1	16	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-iyul, mln AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 14,7 % bilan 1 696,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangihayot tumani 3,0 % bilan 344,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi.